

**IJTIMOYIY HARAKATCHANLIK VA SIYOSIY ISHTIROK: FUQAROLIK JAMIYATINING AHAMIYATI.**

*Andijon Davlat Pedagogika instituti  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabalari*

*Shaxobiddinova Mumtoza.*

*Shavkatjonova Mohinur,*

*Odilova Mohlaroy.*

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Maktabgacha ta'lim fakul'teti*

*o'qituvchisi Jabborova Sayyora.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada fuqarolik jamiyatining ijtimoiy harakatchanlik va siyosiy ishtirokni shakllantirishdagi o'rnini va ahamiyati tahlil qilinadi. Ijtimoiy harakatchanlik fuqarolarning ijtimoiy hayotda faol qatnashib, o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish qobiliyati sifatida ta'riflanadi. Siyosiy ishtirok esa fuqarolarning davlat boshqaruvi va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlarida faol qatnashuvini anglatadi. Fuqarolik jamiyati demokratiya va barqarorlikni rivojlantirish uchun hal qiluvchi vosita sifatida qayd etilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy-siyosiy harakat, jamiyat, qatlamlar, siyosiy partiyalar.

Fuqarolik jamiyati" tushunchasi "davlat" tushunchasi kabi qadimiy va o'zining uzoq rivojlanish bosqichalriga ega bo'lgan tushunchadir. Davlatda yashovchi fuqarolar fuqarolik jamiyatini tashkil qiladi, degan tezisni birinchi bo'lib ilgari surgan olimlardan biri Arastu edi. U "Davlat nima ekanligini aniqlashdan oldin fuqaro tushunchasini aniqlab olish kerak, chunki davlat fuqarolar yig'indisi, fuqarolik jamiyatidan boshqa narsa emas", deb yozgan edi. Bu nuqtai nazar, ehtimol, qadimgi yunon demokratiyasi sharoitida, erkin fuqarolarning ko'pchiligi davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etgan va boshqaruv ishlariga haq to'lanmagan sharoitlarda o'zini oqlagandir. Biroq keyingi tadqiqotchilar Arastuning davlat fuqarolik jamiyati degan fikrini qo'llab-quvvatlamadilar. "Fuqarolik jamiyati" tushunchasi G.Gegel va boshqa ba'zi faylasuflar asarlarida yanada rivojlantirildi. Fuqarolik jamiyati haqidagi zamonaviy tushunchaga G.Gegel eng yaqin keldi. U fransuz, anglosakson va nemis ijtimoiy tafakkuri yutuqlarini tizimlashtirib, fuqarolik jamiyati oiladan davlatga dialektik harakatning alohida bosqichini ifodalaydi, degan xulosaga keldi. G.Gegel fuqarolik jamiyatini davlatning kelib chiqishi haqidagi shartnoma nazariyasi bilan bog'ladi. Fuqarolik jamiyati haqida gapirganda, biz ushbu ta'rifdan kelib chiqamiz. Fuqarolik jamiyati, birinchi navbatda, har qanday tuzilmalar emas, balki jamiyatning sifat holatidir, ammo o'z manfaatlarini amalga oshirish uchun

shaxslar qandaydir tarzda birlashishi kerak. Shu sababli, davlat apparati va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar masalasini ochib berish. Fuqarolik jamiyatining asosiy elementlari sifatida aksariyat mualliflar quyidagilarni belgilaydilar: jamoat birlashmalari, jumladan, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, jamoat tashabbuskorlik organlari, xayriya fondlari, iste'molchilar uyushmalari, ilmiy, madaniy, sport jamiyatlari va boshqalar, lobbi tuzilmalari; diniy birlashmalar; mustaqil ommaviy axborot vositalari; oila; bevosita hukumat rahbariyatidan xoli sanoat tuzilmalari. Darhaqiqat, muayyan davlat ijtimoiysiyosiy subyekti ikkita asosiy elementdan - davlat va fuqarolik jamiyatidan iborat. Bu elementlarning ikkalasi ham bitta tizimni tashkil qiladi va ularning har biri o'ziga xos funksiyalarni bajaradi.

Ijtimoiy-siyosiy harakat — bu jamiyatdagi turli guruhlar yoki qatlamlarning o'z manfaatlarini himoya qilish yoki o'zgarishlar talab qilish maqsadida birlashgan harakatidir. Bu harakatlar jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida o'zgarishlar kiritishga yo'naltirilgan bo'ladi. Ijtimoiy harakatlarni o'rganishdir. Ijtimoiyharakat, M.Veberning fikricha, kishilarning ongli, anglagan o'zaro munosabatlari sistemasi, o'zaro bir-biriga ta'siridir. Inson harakati uning boshqa kishilarning harakatiga nisbatan javobidir. Ijtimoiyharakatdagi motivlarni, qadriyatlarni hisobga olish kerak. Ijtimoiyharakat sub'ektining ma'naviy dunyosini, qadriyatli yo'nalishini tushunmoq zarur. Ijtimoiy-siyosiy harakatlar jamiyatda siyosiy o'zgarishlarni amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Ular yangi qonunlar qabul qilinishini talab qilish, mavjud siyosiy tizimni takomillashtirish va islohotlar o'tkazish kabi maqsadlarni ilgari suradi. Misol uchun, fuqarolik huquqlari uchun kurashgan harakatlar ko'plab davlatlarda teng huquqli jamiyatlarni shakllantirishga yordam berdi. Ijtimoiy-siyosiy harakatlar fuqarolarni davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyatlarini anglashga undaydi. Bunday harakatlar orqali odamlar o'z manfaatlarini himoya qilish uchun birlashadi va jamiyat hayotida faol ishtirok etadi. Bu demokratiyaning rivojlanishiga xizmat qiladi, chunki faollar davlat qarorlariga ta'sir o'tkazishga urinadilar. Fuqarolik jamiyati turli ixtiyoriy tashkilotlar va harakatlardan iborat. Ular orasida kasaba uyushmalari g'oyat muhim o'rin tutadi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish, uni demokratlashtirish, unga ijtimoiy yo'nalish berish jarayonida kasaba uyushmalarining alohida o'rni bor. Ular fuqarolik jamiyati doirasida mustaqillik, erkinlik, bag'rikenglik, o'z-o'zini hurmat qilish kabi umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ijtimoiy munosabatlarga katta hissa qo'shmoqda. Fuqarolik jamiyati bozor munosabatlarining shakllanishi davrida vujudga keladi va ular bilan birga rivojlanadi. Bu taraqqiyotning paradokslaridan biri shundaki, erkin iqtisodiy munosabatlar asosida vujudga kelgan fuqarolik jamiyatining alohida institutlari faoliyati tadbirkorlikning to'liq erkinligini cheklashga qaratilganligi, ya'ni bozor taraqqiyoti qonunlariga zid ravishda faoliyat yuritishidir. Bu birinchi navbatda kasaba uyushmalari faoliyatiga taalluqlidir.

Fuqarolik jamiyati - bu davlat tuzilmalari va bozor iqtisodiyoti o'rtasida joylashgan, insonlarning erkin birlashmalari orqali shakllangan ijtimoiy maydon. U jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida muhim rol o'ynaydi, chunki u ijtimoiy harakatchanlikni rivojlantirish va siyosiy ishtirokni oshirish uchun asos yaratadi. Fuqarolik jamiyati siyosiy ishtirokni kuchaytiradi. Siyosiy ishtirok fuqarolarning davlat boshqaruvi va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlarida faol qatnashishi demakdir.

Bu jarayon quyidagi yo'llar bilan amalga oshadi:

1. Saylovlarda ishtirok etish: Fuqarolik jamiyati tashkilotlari fuqarolarni siyosiy jarayonlarga jalb qilish, saylov huquqlarini targ'ib qilish va siyosiy savodxonlikni oshirish orqali ishtirokni rag'batlantiradi.

2. Ijtimoiy nazoratni amalga oshirish: Nodavlat tashkilotlar va mustaqil OAV siyosiy jarayonlarni monitoring qilish va hisobdorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

3. Siyosiy mavzularni muhokama qilish maydonini yaratish: Fuqarolik jamiyati ommaviy muloqot uchun imkoniyatlarni kengaytiradi, turli manfaatlarni ifoda etadi va jamiyatdagi muhim masalalarni hal etishga hissa qo'shadi.

Fuqarolik jamiyatining ahamiyati fuqarolik jamiyati barqarorlik, demokratiya va rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega. U fuqarolarni mustaqil va erkin fikrlashga o'rgatadi. Davlat boshqaruviga nisbatan fuqarolarning ishonchini oshiradi. Turli guruhlar manfaatlarini muvofiqlashtirib, ijtimoiy ziddiyatlarni kamaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolik jamiyati ijtimoiy harakatchanlik va siyosiy ishtirokni rivojlantirish orqali jamiyatni demokratik qadriyatlar asosida mustahkamlashda hal qiluvchi o'rin tutadi. Bu, o'z navbatida, adolatli va barqaror jamiyat barpo etish uchun muhim omildir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Quldoshev A. Fuqarolik jamiyati taraqqiyotida O,,zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. O,,quv qo,,llanma. –Toshkent: O,,zbekiston, 2020. –B. 19.
2. Беруний А.Р. Хиндистон // Асарлар. –Тошкент: Фан, 1965. –Б. 70, 125, 161; Минералогия: собраниеведений для познания драгоценностей. –Москва, 1963. –С.104.
3. Жалилов А., Муҳаммадиев У., Жўраев Қ. Фуқаролик жамияти асослари: ўқув қўлланма. –Тошкент, 2015. –Б. 12.
4. Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. –Тошкент, 1993. –Б. 190.
5. Ҳамроев А. Фуқаролик жамиятининг тарихий концепциялари. // Фуқаролик жамияти, 2004, 1-сон. –Б. 35.